


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2021- yil 1 oktabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 31 348 tani tashkil qildi. (2020- yil 1 oktabrga nisbatan 119,1 % ga ko‘pdir).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2021- yil 1 oktabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi




Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 35,1 %), sanoat sohasida (24,4 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (10,7 %) va qurilishda (8,3 %) tashkil etilgan.

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr
<b>Viloyat jami</b>	<b>4 900</b>	<b>4 882</b>
Namangan shahar	1 042	1 284
Mingbuloq	303	277
Kosonsoy	278	261
Namangan	403	322
Norin	287	318
Pop	453	324
To'raqo'rg'on	371	371
Uychi	394	350
Uchqo'rg'on	353	348
Chortoq	303	331
Chust	409	443
Yangiqo'rg'on	304	253

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 1 284 ta, Chust tumanida – 443 ta, To'raqo'rg'on tumani – 371 ta, Uychi tumanida – 350 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 348 ta, Chortoq tumanida – 331 ta, Pop tumanida – 324 ta, Namanagan tumani – 322 ta, Norin, Kosonsoy va Mingbuloq tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on tumanida – 253 tani tashkil etdi.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda**




2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Namangan shahri – 26,3 %, Chust tumani – 9,1 %, To'raqo'rg'on tumanida -7,6 %, Uychi tumani 7,2 %, Uchqurg'on – 7,1 %, Pop va Namangan tumalarida 6,6 %, Norin tumalarida – 6,5 %, va Mingbuloq tumani – 5,7 %, tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 74,7 % (2020- yil yanvar-sentabr oylarida 74,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 182,1 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 51,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 344,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 79,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(yanvar-sentabr oylari holatiga, foizda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi

(2021- yil yanvar-sentabr)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 221,2	97,2
Sanoat	4 759,4	48,1
Qurilish	2 940,6	96,9
Chakana savdo	9 147,9	93,2
Yuk tashish, mln. tonna	18,2	93,6
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	312,0	97,4

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(foizda)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
<b>Viloyat jami</b>	<b>48,1</b>	<b>96,0</b>	<b>67,1</b>	<b>68,8</b>
Namangan shahar	53,9	91,7	48,8	53,3
Mingbuloq	36,9	100,0	80,5	61,1
Kosonsoy	69,2	99,5	82,6	88,2
Namangan tuman	61,3	99,5	81,8	83,4
Norin	53,0	97,6	82,3	87,2
Pop	60,2	88,9	72,5	76,4
To'raqo'rg'on	16,1	96,5	73,3	83,3
Uychi	75,5	95,7	80,8	83,3
Uchqo'rg'on	15,0	100,0	77,5	80,3
Chortoq	100,0	100,0	78,1	80,9
Chust	39,9	100,0	78,0	56,5
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	84,2	93,4

Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0 %) hamda Uychi (75,5 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** – Mingbuloq tumani, Uchqo'rg'on tumani, Chortoq tumani, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlarida 100,0 %, Namangan tumani va Kosonsoy tumanlarida 99,5 %, Norin tumani 97,6 % tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida** – Yangiqo'rg'on (84,2 %), Kosonsoy (82,6 %), Norin (82,3 %), Namangan tuman (81,8 %), Uychi (80,8 %), Mingbuloq (80,5 %), Chortoq (78,1 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Yangiqo'rg'on (93,4 %), Kosonsoy (88,2%), Norin (87,2 %), Namangan tumanlari (83,4 %), To'raqo'rg'on va Uychi (83,3 %) tumanlari yuqori ulushlarni tashkil etdi.